Intellektual texnologiyalar nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda ham keng qo'llanilmoqda. Ularning asosiy vazifasi murakkab tizimlarni boshqarish, insonning qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlash va ma'lumotlardan samarali foydalanishni ta'minlashdir. Sun'iy intellekt, IoT, Big Data va kompyuter ko'rishi kabi texnologiyalar sohada innovatsion yechimlar yaratish imkonini beradi, shu bilan birga xavfsizlik va samaradorlikni oshiradi.

Yo'l harakati xavfsizligida intellektual texnologiyalar bir nechta asosiy yo'nalishda ishlatiladi. Birinchidan, avtomatlashtirilgan kuzatuv va monitoring tizimlari real vaqt rejimida qoidabuzarliklarni aniqlash va ularni oldini olish imkonini beradi. Ikkinchidan, Big Data va mashina o'rganishi yordamida yo'l-transport hodisalarining statistik tahlili amalga oshirilib, xavfli hududlar va tirbandliklar oldindan aniqlanadi. Uchinchidan, avtonom transport vositalari va kompyuter ko'rishi texnologiyalari yo'l harakatini avtomatlashtirish va xavfli vaziyatlarda tezkor qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi. IoT tizimlari esa transport infratuzilmasi, qurilmalar va sensorlarni birlashtirib, ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashish va yo'l harakatini samarali boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, intellektual texnologiyalarning rivojlanishi kelajakda transport tizimlarini yanada aqlli va xavfsiz qilish imkoniyatini beradi. Sun'iy intellekt yordamida tizimlar murakkab vaziyatlarni oldindan bashorat qilishi va o'zini optimallashtirishi mumkin. IoT qurilmalari transport infratuzilmasini tarmoq orqali boshqarishga, Big Data esa katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilib, samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Kompyuter ko'rishi texnologiyasi esa vizual ma'lumotlardan foydalanib, obyektlarni aniqlash va xavfli vaziyatlarni tezkor aniqlash imkonini beradi.

Natijada, intellektual texnologiyalar yo'l harakati xavfsizligini oshirish, inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish, transport tizimlarini avtomatlashtirish va infratuzilmani samarali boshqarish imkonini yaratadi. Bu esa kelajakda aqlli shaharlar, avtonom transport tizimlari va xavfsiz, samarali yo'l harakati muhiti yaratishga xizmat qiladi.

Xorijiy tajriba va O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtirish

Germaniya va Singapur yo'l harakati xavfsizligida intellektual texnologiyalarni keng qo'llash bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Germaniyada avtonom transport vositalari ma'lum hududlarda qonuniy ruxsat etilgan, ularni masofadan boshqarish va qo'shimcha sug'urta orqali nazorat qilish mexanizmi mavjud.⁸ Shuningdek, sensorlar va kameralar yordamida xavfli hududlar aniqlanadi va yo'l-transport hodisalarining oldini olishga imkon beruvchi tizimlar ishlab chiqilgan. Singapurda esa Intelligent Transport Systems (ITS) va IoT asosidagi tizimlar

⁸ Federal Ministry of Transport and Digital Infrastructure, Germany, 2021

real vaqt rejimida trafikni boshqaradi, avtonom transport vositalari “sandbox” modelida sinovdan o‘tkaziladi va xavfsizlik fraymvorki bilan qo‘llaniladi.⁹

O‘zbekiston qonunchiligida hozirda raqamli kuzatuv, videokameralar va ma’lumotlarni tahlil qilish vositalari yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan.¹⁰ Shu bilan birga, avtonom transportni tartibga soluvchi maxsus qonunlar mavjud emas. Ma’muriy javobgarlik kodeksi va jinoyat kodeksiga yo‘l harakati qoidalarini buzilish holatlariga oid yangiliklar kiritilgan, ammo ilg‘or davlatlardagi kabi tizimli regulyator mexanizmlari va texnik nazorat imkoniyatlari cheklangan.

Shu asosda, O‘zbekiston uchun tavsiyalar: raqamli infratuzilmani kengaytirish, avtonom transportni sinovdan o‘tkazish uchun “sandbox” modeli joriy etish, texnik nazoratchilar va sug‘urta mexanizmini yaratish orqali xavfsizlikni oshirish. Bu choralar transport tizimini aqlli va xavfsiz qilishga xizmat qiladi.¹¹

Xulosa

Mazkur tadqiqotda intellektual texnologiyalar va ularning yo‘l harakati xavfsizligini oshirishdagi roli nazariy jihatdan tahlil qilindi. Sun‘iy intellekt, IoT, Big Data, kompyuter ko‘rishi va sensor tizimlar kabi texnologiyalar transport oqimini optimallashtirish, avtohalokatlarning oldini olish va xavfli hududlarni aniqlash imkonini berishi aniqlab olindi. Xorijiy tajribalar – Germaniya va Singapur misolida – avtonom transport tizimlari va raqamli boshqaruv vositalarini samarali integratsiya qilish orqali xavfsizlikni oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston qonunchiligi bilan solishtirilganda, mamlakatda raqamli kuzatuv va videokameralar asosida xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan qadamlar mavjud, ammo avtonom transport va tizimli regulyator mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan. Shu bois, raqamli infratuzilmani kengaytirish, “sandbox” sinov modellari va texnik nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali O‘zbekistonda yo‘l harakati xavfsizligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, intellektual transport tizimlarini rivojlantirish kelajakda xavfsiz, avtomatlashtirilgan va aqlli transport muhiti yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Health Organization (WHO). Global Status Report on Road Safety 2018. Geneva: WHO, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-6008-sonli Farmon, 2020-yil 6-fevral. Avtonom transport va raqamli infratuzilmani joriy etish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar. Toshkent.
3. Federal Ministry of Transport and Digital Infrastructure, Germany. Autonomous Driving in Germany: Legal and Technical Frameworks, 2021.
4. Land Transport Authority, Singapore. Intelligent Transport Systems and Smart Mobility, Singapore, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalari, Ma’muriy javobgarlik kodeksi, Jinoyat kodeksi, Toshkent, 2023.

⁹ Land Transport Authority, Singapore, 2020

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalari, Ma’muriy javobgarlik kodeksi, Jinoyat kodeksi, 2023

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyuldagi 459-son qarori

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 459-son qarori, 2021-yil 15-iyul. Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha raqamli tizimlarni joriy etish. Toshkent.
7. Chen, L., & Huang, X. Intelligent Transportation Systems and Road Safety: A Review. *Transportation Research Part C*, 2020, Vol. 112, pp. 182-198.
8. Zhang, Y., & Wang, J. Big Data Analytics in Traffic Management. *IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems*, 2019, Vol. 20, No. 7, pp. 2451-2462.
9. Goodall, N. J. Machine Vision, IoT, and AI in Road Safety Applications. *IEEE Intelligent Systems*, 2021, Vol. 36, No. 5, pp. 32-41.

BOLA PSIXOLOGIYASI ERTA YOSHDAGI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Abdusalilova Gavharoy Xurshidbek qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 1-kurs surdopedagogika yo'nalishi talabasi

Xalmuratova Dilorom

Ilmiy rahbar:

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bola psixologiyasining erta yoshdan boshlab rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari va uning shakllanish bosqichlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Psixologiya, bolaning rivojlanishi, erta rivojlanish, bolalar psixologiyasi, nutq rivoji, tafakkur, xotira, diqqat, ota-ona roli, tarbiya.*

KIRISH

Inson shaxsining shakllanishi va rivojlanishi eng avvalo bolalik davridan boshlanadi. Psixologiya fanida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning ilk yillari uning kelajakdagi bilim olish qobiliyati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy hayotga moslashuvchanligi uchun hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, 0-6 yosh oralig'ida bolaning psixik rivojlanishida eng sezilarli o'zgarishlar yuz beradigan davr bo'lib, unda nutq, tafakkur, diqqat, xotira va ijodiy tasavvur kabi asosiy psixologik jarayonlar shakllanadi. Erta rivojlanish davri nafaqat bolaning individual xususiyatlarini ochib berish, balki uning kelajakdagi ijtimoiy mavqei va ta'limdagi muvaffaqiyati uchun ham mustahkam poydevor yaratadi. Shu davrda ota ona mehr-muhabbati, to'g'ri tarbiya, psixologik qo'llab-quvvatlash va pedagogik yondashuvlar bolaning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Erta rivojlanish davrining psixologik ahamiyati: Psixologlar ta'kidlashlaricha, bolaning hayotining ilk yillari uning shaxsiyati shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu davrda bolaning miyasida neyron aloqalar tez sur'atda shakllanadi, natijada nutq, tafakkur, xotira va ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Bu davrda bola atrof-muhitni faol o'rganishga intiladi, har bir yangi taassurot esa uning ruhiy rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Nutq va tafakkurning shakllanishi: Erta yoshdagi rivojlanish jarayonida nutqning o'zlashtirilishi markaziy o'rin tutadi. Bola ona tili orqali nafaqat muloqot qilishni, balki dunyoni tushunishni ham o'rganadi. Nutqning rivojlanishi tafakkur, xotira va ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlaydi. Shu bois ota-onalar bolalar bilan ko'proq suhbatlashishi, kitob o'qib berishi va nutqiy muhit yaratishi muhimdir. Ota-onaning roli: Bolaning erta rivojlanishida ota-onaning o'rnini beqiyosdir. Mehr muhabbat, e'tibor va to'g'ri tarbiya bolada o'ziga ishonchni, ijobiy dunyoqarashni shakllantiradi. Ota-onaning hissiy qo'llab-quvvatlashi bolaning kelajakdagi ijtimoiy faolligi va ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Oila muhitida bola o'zini xavfsiz his qilsa, u erkin fikrlaydi va yangi narsalarni o'rganishga ishtiyoqi kuchayadi. Pedagogik va psixologik yondashuvlarning ahamiyati: Erta rivojlanish davrida ta'lim va tarbiya jarayonida qo'llaniladigan metodlar muhim hisoblanadi. Didaktik o'yinlar, interaktiv mashg'ulotlar, san'at va musiqa mashg'ulotlari bolalarda nafaqat bilim, balki emotsional rivojlanishni ham kuchaytiradi. Psixologik yondashuv esa bolaning individual xususiyatlarini

hisobga olgan holda tarbiyaviy va o'quv dasturlarni shakllantirishni talab qiladi. Erta rivojlanishning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni: Bolalarning erta rivojlanishi nafaqat individual muvaffaqiyat uchun, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhimdir. Chunki erta yoshda bilim va ko'nikmalarni egallagan bolalar kelajakda ijodkor, tashabbuskor va raqobatbardosh shaxs sifatida voyaga yetadilar. Shu sababli ko'plab mamlakatlarda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va erta rivojlanish dasturlarini keng tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Bolalar psixologiyasi bolalarda psixik jarayonlar (ma'rifiy, nutqiy, hissiy, irodaviy va hokazo) paydo bo'lishi va rivojlanishini, psixik xususiyatlar qaror topishini, xilma-xil faoliyatning (o'yinlar, o'qish, mehnat) rivojlanishini, bolaning shaxs sifatida shakllanishini o'rganadi. Birinchi holatda birgina psixik jarayonning o'zi bir vaqtda turli yosh guruhlariga taalluqli bo'lgan bolalarda tadqiq qilinadi. Ikkinchi holatda (longityud) esa ma'lum bir (alohida tanlab olingan) bolalarning psixik xususiyatlari ko'p yillar davomida tadqiq qilinadi. Bu esa o'z navbatida ular psixikasi rivojlanishining umumiy kechishini kuzatish imkoniyatini beradi. Bolalar psixologiyasida asosan ota-onalarga bolaga unga bo'lgan ishonch, hurmat, qo'llab-quvvatlash, unga bo'lgan e'tiborlarini his qildirish. Mumkin bo'lgan va mumkin bo'lmagan holatlar o'rgatiladi. Bolalarning psixologiyasidagi shunday jihat etiborimizni qaratadiki, ular aynan shu davrda o'z qiziqishlari, yetakchi faoliyati bo'lgan syujetli-rolli o'yinlardagi harakatlari bilan birgalikda ijtimoiy dunyoning, avvalo, ota-ona oilasidagi rollarga va o'zaro munosabatlarga e'tiborli bo'lib, aynan ota-onalikka xos qiliqlarni o'zlashtirishga kirishadilar. Bola bunda uning oldida ro'y berayotgan voqea-hodisalarning kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylanib, bu jarayonlar qanchalik dinamik bo'lsa, shunchalik faol va qiziquvchan bo'ladi, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarga nisbatan ko'proq, to'laroq va turli-tuman axborotlarni oladi, o'zlashtiradi va fikrlaydi. Bunda "Oila" bola "men"ni shakllantiruvchi muhim sotsium - ijtimoiy muhitga aylanib, o'zining ushbu muhitga aloqadorligini anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda shuni qayd etib o'tish joizki, ijtimoiy psixologlarning fikricha, oiladagi shaxslararo munosabatlar tuzilmasida ota - ona bola munosabatlari evolyutsion jihatdan nisbatan kechki va mazmunan aniqroq hisoblanadi, chunki ular shakllanib bo'lgan er-xotin munosabatlari asosida vujudga keladi. Biz shunga ishonch hosil qildikki, aynan nikoh juftligidagi er-xotin munosabatlari bolaning ijtimoiy tasavvurlarida bilvosita ifodalangan ota-onalik munosabatlariga nisbatan moslashuvchan va dinamik bo'lib, shu sababli bolaning ota-ona munosabatini aks ettirishi uning shaxsida ifodalangan o'zgarishlarga zamin bo'ladi. Masalan, onalar va otalarda ota-ona munosabatining umumiy ko'rsatkichlari mos kelish darajasi 0 dan 5 gacha bo'lgan bir paytda oilaviy qadriyatlar iyerarxiyasida umumiy ko'rsatkichlarning mos kelmaslik darajasi 1dan 11gacha, ya'ni ota-ona munosabatlarining xuddi shunday ko'rsatkichiga nisbatan 2 baravar katta bo'ladi. Oiladagi ichki munosabatlar va ota-onaning bolaga munosabati ta'siri ostida shakllanuvchi birlamchi o'ziga munosabat, o'zini identifikatsiyalashning barcha ko'rinishlarida va kommunikativ faoliyat sub'yekti sifatida bolaning birlamchi kichik ijtimoiy guruh sifatida oilada o'zini anglashi rivojlanishining hal qiluvchi omili hisoblanadi.

Bola dunyoni, atrofni ota-ona ko'zlari bilan anglaydi. Ota-onaga nima yomon bo'lsa, bola shuni yomon deb hisoblaydi. Ota-ona kimni xush ko'rsa, bola uchun u inson yaxshi

bo'ladi. Bu holat bolani 10-12 yoshiga qadar davom etadi. Undan keyin bola o'zi xulosa qilishga o'rganishni boshlaydi. Shunday ekan, bolaning har bir harakati - bu ko'zgidagi sizning aksingiz. Ilk bolalik davridagi bolalarda barcha psixik jarayonlar ma'lum darajada rivojlanar ekan, bu umuman ular ongining rivojlanishiga zamin yaratadi. Tili chiqib, idrok va tafakkuri anchagina o'sgan bola tevarakatdagi har turli narsalarga ongli munosabatda bo'la boshlaydi. Bola o'zining turli ehtiyojlarini anglab, o'zining shaxsini shakllantira boshlaydi. Mashhur fiziolog I.M. Sechenovning tili bilan aytganda, bola ana shu davrdan boshlab, o'z sezgilarini tevarak atrofdagi narsalardan ajratib, o'z-o'zini anglay boshlaydi. Bu yoshdagi bolalarning so'z boyligida o'z shaxsini bildiruvchi emenw degan olmosh tez-tez uchrab turadigan bo'ladi. Ana shu tariqa bola juda elementar tarzda bo'lsa ham o'zini shaxs sifatida anglay boshlaydi. Binobarin, ana shu davrdan boshlab ilk bolalik davridagi bolalarning shaxsiy(individual) xususiyatlari kamol topa boshlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bolalar psixologiyasida erta rivojlanish davri - shaxs shakllanishining eng muhim bosqichidir. Ilk yillarda bola dunyoni idrok etadi, nutq, tafakkur, xotira va ijodiy tasavvur kabi asosiy psixik jarayonlar shakllanadi. Shu davrda berilgan tarbiya, mehr-muhabbat va psixologik qo'llab-quvvatlash bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Erta rivojlanishni e'tiborsiz qoldirish esa bola shaxsiyatida ayrim cheklanishlar, ta'limdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuvda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://president.uz/uz> - Uzbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sahiti.
2. Урунтаева Г.А. Детская психология. - М.: «Академия», 2010. -С. 36.
3. Поддьяков Н.Н. Мышление дошкольника. - М.: «Педагогика», 1977. -С. 222.
4. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. - Т.: «Укитувчи», 1990.
5. Каримова В.М., Суннатов Р. Мустакил фикрлаш. - Т.: «Шарк», 2000.
6. Нишонова З.Т. Мустакил ижодий фикрлаш. - Т.: «Фан», 2004.
7. Тихомиров О.К. Психология мышления. - М.: МГУ, 1984.
8. Венгер Л.А., Венгер А.Л. Домашняя школа мышления (для пятилетних детей). - М.: «Знание», 1984.
9. Выготский Л.С. Воображение и творчество в детском возрасте. - М.: «Просвещение», 1991.
10. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: «Педагогика», 1982.

DAVLATNING IQTISODIYOTDAGI ROLI

Ne'matova Durdona Ulug'bek qizi

Farg'ona tuman xizmat ko'rsatish va servis texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola iqtisodiyotning davriy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish muammolarini tahlil qiladi. Iqtisodiyotda yuzaga keladigan o'sish, pasayish, tiklanish va qisqa muddatli turish kabi davriy to'loqlarning davlat siyosati orqali boshqarilishining ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqola pul-kredit siyosati, byudjet siyosati va fiskal siyosat kabi asosiy iqtisodiy vositalarni tahlil qiladi va ularning iqtisodiy tsikllarni tartibga solishdagi rolini aniqlaydi. Davriy rivojlanishlarning yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan muammolar, masalan, inflatsiya va ishsizlik, hamda ular uchun taklif qilinadigan chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Davlat iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadida qanday chora-tadbirlarni qo'llashi kerakligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy tsikllar, davlat tartibga solishi, O'zbekiston iqtisodiyoti, qonunlar va qarorlar, fiskal siyosat, monetar siyosat, iqtisodiy barqarorlik, YAIM, inflyatsiya, ishsizlik, sanoat rivojlanishi, xalqaro tajriba.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Iqtisodiy tsikllar, ya'ni iqtisodiyotning yuksalish, inqiroz va tiklanish davrlari, har bir davlat uchun tabiiy jarayondir. Ushbu jarayonlar davlat tomonidan qanday tartibga solinishi, iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta'minlash uchun qanday qonunlar va qarorlar qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston respublikasi iqtisodiyotida davlat siyosatining roli va bu borada qabul qilingan qonunlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Iqtisodiy rivojlanish vaqt o'tishi bilan doimiy ravishda o'zgarib turadi, bu jarayonlarda davriy to'loqlar, krizislar, va o'sish davrlarini o'z ichiga oladi. Davlat, iqtisodiy barqarorlikni saqlash va ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadida, iqtisodiyotdagi bu davriy o'zgarishlarni tartibga solish uchun bir qator choralarni amalga oshiradi.

1. Davriy Rivojlanish Nima?

Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi iqtisodiy faollikdagi o'zgarishlarni, ya'ni o'sish, pasayish, tiklanish va qisqa muddatli turishlarni anglatadi. Bu davriy to'loqlar iqtisodiy tsikllar orqali namoyon bo'ladi.

- O'sish davri: Iqtisodiy faoliyatning o'sishi va ijtimoiy farovonlikning oshishi.
- Pasayish davri: Iqtisodiy faoliyatning kamayishi va iqtisodiy qiyinchiliklar.
- Tiklanish davri: Iqtisodiy pasayishdan so'ng o'sishning boshlanishi.
- Qisqa muddatli turish: Iqtisodiy faoliyatning vaqtincha barqaror bo'lishi.

2. Davlat tomonidan tartibga solish usullari

Davlat iqtisodiy tsikllarni boshqarish uchun bir qator choralarni qo'llaydi. Ushbu chora-tadbirlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

2.1. Pul-kredit siyosati

Markaziy banklar orqali amalga oshiriladi. Pul-kredit siyosati foiz stavkalarini o'zgartirish, pul massasi va likvidlikni boshqarish orqali iqtisodiy faollikni nazorat qiladi.

- O'sish davrida: Pul-kredit siyosati odatda yanada yumshatiladi, foiz stavkalari pasaytiriladi va pul ta'minoti oshiriladi.

- Pasayish davrida: Pul-kredit siyosati qattiqshatiriladi, foiz stavkalari oshiriladi va pul massasi kamaytiriladi.

2.2. Byudjet siyosati

Davlat xarajatlari va soliq siyosati orqali amalga oshiriladi. Byudjet siyosati iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish yoki pasayishni kamaytirish uchun ishlatiladi.

- O'sish davrida: Davlat xarajatlari oshiriladi va soliq imtiyozlari beriladi. - Pasayish davrida: Xarajatlar qisqartiriladi va soliq darajalari oshiriladi.

2.3. Fiskal siyosat

Davlatning iqtisodiy faoliyatini boshqarishda qo'llaniladigan fiskal siyosat, iqtisodiy tsikllarni nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. U davlat qarzlarini boshqarish, soliqlarni tartibga solish va iqtisodiy dasturlarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

3. Davriy Rivojlanishdagi Muammolar va Chora-tadbirlar

Davriy rivojlanishlar davlat uchun muhim bo'lishi bilan birga, muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin:

- Inflatsiya: O'sish davrida narxlarning oshishi, inflatsiyani kuchaytirishi mumkin.

- Ishsizlik: Pasayish davrida ish o'rinlarining yo'qolishi va ishsizlikning oshishi.

Davlat ushbu muammolarni hal qilish uchun mos chora-tadbirlarni qo'llashi lozim.

Maqsad va vazifalar:

- Maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston respublikasida iqtisodiy tsikllarni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qonunlar va qarorlarning tahlili, ularning iqtisodiyotga ta'siri va natijalarini o'rganishdan iborat. Bu jarayonda qabul qilingan siyosatning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri va ularning natijalari aniqlanadi.

Metodologiya

1. Ma'lumotlar Manbalari:

- O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari, Oliy Majlis qarorlari, Markaziy Bank qarorlari, Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlarning iqtisodiy hisobotlari (masalan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi).

- Qo'llanilgan metodlar: qonunchilik tahlili, iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili, statistik tahlil, solishtirma tahlil, regressiya tahlili.

2. Tahlil Usullari:

- Qonunchilik tahlili: O'zbekistonda qabul qilingan iqtisodiy qonunlar va qarorlarning mazmuni va amaliyotda qo'llanilishi tahlili.

- Iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili: YAIM, inflyatsiya, ishsizlik darajasi kabi ko'rsatkichlarning tahlili va ularning qonunlar va qarorlar bilan bog'liqligi.

1. Tadqiqot Dizayni

- Davlat siyosatining iqtisodiy tsikllarni tartibga solishdagi rolini o'rganish.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishning umumiy yondashuvlari va maqsadlari.

2. Ma'lumotlarni To'plash Usullari

- Huquqiy Tahlil: Iqtisodiy tsikllarni tartibga solish bilan bog'liq qonun va huquqiy hujjatlarni tahlil qilish. Qonunlarning iqtisodiy ta'sirini o'rganish.

- Statistik Ma'lumotlar: O'zbekistonning iqtisodiy ko'rsatkichlari (inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, ish bilan ta'minlash) bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish. Davlat statistika qo'mitasi va boshqa rasmiy manbalardan foydalanish.

- So'rovnomalar va Intervyular: Iqtisodiy siyosatning amaliy jihatlarini baholash uchun so'rovnomalar o'tkazish yoki ekspertlar bilan intervyular.

3. Tahlil Usullari

- Kvantitativ Tahlil: Statistik tahlil va model qilish orqali ma'lumotlarni tahlil qilish. Inflyatsiya va iqtisodiy o'sish kabi ko'rsatkichlarning vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganish.

- Kvalitativ Tahlil: Huquqiy hujjatlar, siyosat va amaliyotning sifatli tahlilini o'tkazish. Iqtisodiy siyosatning amaliy natijalarini baholash.

4. Ma'lumotlarni Tahlil qilish

- Statistik Tahlil: Olingan ma'lumotlarni statistik usullar yordamida tahlil qilish, masalan, regressiya tahlili, korelatsiya, vaqt seriyalari tahlili.

- Soliq Tahlili: Davlat siyosati va qonunlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash.

5. Natijalarni Qayta Tekshirish

- Nazorat va Tekshirish: Tahlil natijalarining to'g'riligi va ishonchligini tekshirish. Natijalarni boshqa tadqiqotlar bilan solishtirish.

6. Cheklovlar va Chegaralar

- Tadqiqot Cheklovlari: Tadqiqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan cheklovlar, masalan, ma'lumotlarning mavjudligi, qamrov darajasi, va vaqt chegaralari.

- Chegaralar: Tadqiqot doirasining cheklanishi, masalan, faqat O'zbekiston iqtisodiy siyosatini o'rganish.

7. Tadqiqot Usullarining Samaradorligi

- Usulni Tanlash: Qaysi metodologik usullar eng yaxshi natijalarni beradi va ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini tahlil qilish.

Natijalar

1. O'zbekistonda Qabul Qilingan Qonunlar:

- "Iqtisodiy Barqarorlikni Ta'minlash To'g'risida"gi Qonun: Ushbu qonun iqtisodiy tsikllarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan va uning asosiy tamoyillari, davlatning iqtisodiy siyosatiga ta'siri tahlil qilinadi. Qonun qoidalari bo'yicha iqtisodiy o'zgarishlar va ularning amaliy natijalari muhokama qilinadi.

- "Davlat Budjeti To'g'risida"gi Qonun: Bu qonunning iqtisodiy tsikllarga ta'siri, byudjetning daromad va xarajatlari, ularning tsikllar davomida qanday o'zgarishi haqida ma'lumotlar keltiriladi.

- Prezident Qarorlari va Farmonlari: Masalan, 2020-yilda qabul qilingan pandemiya davrida iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qarorlar tahlili. Ushbu qarorlar iqtisodiyotga qanday ta'sir qilganligi va iqtisodiy tsikllarni boshqarishdagi roli haqida tahlil qilinadi.

2. Iqtisodiy Ko'rsatkichlar Tahlili:

- YAIM O'sish Sur'ati: O'zbekistonning yillik YAIM o'sishi va ularning iqtisodiy tsikllarga mos ravishda qanday o'zgarishi. YAIMni ta'sir qilgan qonunlar va qarorlarning tahlili, masalan, 2017-yilda qabul qilingan "2021-yilgacha bo'lgan iqtisodiy rivojlanish dasturi".

- Inflyatsiya Darajasi: Markaziy Bankning pul-kredit siyosati orqali inflyatsiyani boshqarish va bu boradagi qarorlarning iqtisodiy tsikllarga ta'siri. Inflyatsiyaning davriy rivojlanishdagi o'zgarishlari va davlat siyosatining ta'siri.

- Ishsizlik Darajasi: Davriy rivojlanish davomida ishsizlik darajasi qanday o'zgaradi va davlat tomonidan qabul qilingan bandlik siyosatlari, jumladan, 2020yilda qabul qilingan "Yoshlar bandligini oshirish to'g'risida"gi qaror tahlili.

- Davlat Budjeti va Byudjet Defitsiti: Davlat budjetining daromad va xarajatlari, byudjet defitsiti va uning iqtisodiy tsikllarga ta'siri, shu bilan birga, davlat qarzlarning iqtisodiy tsikllarga ta'siri.

3. Amaliy Misollar:

- Pandemiya davrida iqtisodiyotga ko'rsatilgan davlat yordami, masalan, antikrizis dasturi, uning natijalari va iqtisodiy tsikllarga ta'siri. Ushbu dastur natijasida iqtisodiyot qanday barqarorlashgani va o'sish sur'ati qanday bo'lganligi haqida misollar.

Xulosa va tavsiyalar:

Maqola natijalari asosida O'zbekistonda iqtisodiy tsikllarni tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qonun va qarorlarning umumiy bahosi beriladi. Davlat siyosatining iqtisodiy tsikllarni barqarorlashtirishdagi o'rni, qabul qilingan qonunlarning ijobiy va salbiy ta'sirlari, iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishi uchun istiqbolli yo'nalishlar haqida umumiy xulosa chiqariladi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlash uchun fiskal va monetar siyosatni yanada kuchaytirish, qonunlarni modernizatsiya qilish, xalqaro tajribalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalar. Iqtisodiy tsikllarni bashorat qilish va ularga tezkor javob berish uchun davlat siyosatini rivojlantirish yo'nalishlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 1992.

2. "Markaziy bank to'g'risida"gi qonun. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2017.

3. "Iqtisodiy siyosat va rejalashtirish to'g'risida"gi qonun. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2019.

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining Yillik Hisoboti. Toshkent: Markaziy bank, 2023.

5. Mirodilov, A., & Rasulov, R. (2022). "O'zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiyani boshqarish strategiyalari". *O'zbekiston iqtisodiyoti*, 12(3), 45-60.

6. Karimov, T. (2021). "Davlat siyosati va iqtisodiy tsikllarni tartibga solish". *Iqtisodiy tadqiqotlar*, 14(2), 78-90. 7. Abdullaev, I. (2020). *O'zbekiston iqtisodiy siyosati: Nazariya va amaliyot*. Toshkent: Iqtisodiyot universiteti nashriyoti.

8. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF). (2023). *O'zbekiston Respublikasi: Iqtisodiy tahlil va tavsiyalar*. Washington, D.C.: IMF.

9. Jahon Banki. (2023). *O'zbekiston: Iqtisodiy rivojlanish va siyosat*. Washington, D.C.: Jahon Banki.

10. O'zbekiston Respublikasining Davlat Statistika qo'mitasi. (2023). *Iqtisodiy ko'rsatkichlar hisobotlari*. Toshkent: Davlat statistika qo'mitasi.
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Tadqiqotlar Instituti. (2023). *Pul-kredit siyosati va iqtisodiy tsikllar*.
12. Yusupov, A. (2019). *Iqtisodiy tsikllarni boshqarish*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.- Omonov, B. (2018).
13. Pul-kredit siyosati va uning iqtisodiy tsikllarga ta'siri*. Toshkent: Ekonomika.

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNNI IDROK ETISH JARAYONINING
LINGVOPSIXOGIK ASOSLARI****Gulbahor Namozova Muzaffarovna***Oriental universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni idrok etish jarayonining lingvopsixologik asoslari o'rganilgan. Tadqiqotda diqqat, xotira, so'z boyligi va mantiqiy tafakkur kabi psixologik omillar matn mazmunini tushunish va ifodalashga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqilgan. Lingvopsixologik yondashuv pedagoglarga o'quv jarayonini individual xususiyatlarga moslashtirish va samarali metodlarni tanlash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *Matnni idrok etish, boshlang'ich sinf, lingvopsixologik asoslar, diqqat, xotira, so'z boyligi, tafakkur.*

Аннотация: *В статье рассматриваются лингвopsихологические основы восприятия текста учащимися начальной школы. В исследовании рассматривается влияние таких психологических факторов, как внимание, память, словарный запас и логическое мышление, на понимание и выражение содержания текста. Лингвopsихологический подход позволяет педагогам адаптировать процесс обучения к индивидуальным особенностям и выбрать эффективные методы.*

Ключевые слова: *Восприятие текста, начальная школа, лингвopsихологические основы, внимание, память, словарный запас, мышление.*

Abstract: *This article studies the linguopsychological foundations of the process of text perception in primary school students. The study examines how psychological factors such as attention, memory, vocabulary, and logical thinking affect the understanding and expression of text content. The linguopsychological approach allows educators to adapt the learning process to individual characteristics and select effective methods.*

Keywords: *Text perception, primary school, linguopsychological foundations, attention, memory, vocabulary, thinking.*

KIRISH

Boshlang'ich sinf ta'limida matnni idrok etish — o'quvchilarning o'qish, tushunish va til asosidagi fikrlash qobiliyatini shakllantirishdagi eng muhim jarayonlardan biridir. Bu jarayon nafaqat til bilimlari, balki psixologik omillar — diqqat, xotira, tafakkur, mantiqiy fikrlash va hissiy holat bilan chambarchas bog'liqdir. Matnni idrok etish o'quvchining o'qish jarayonidagi muvaffaqiyati va o'rganish motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, boshlang'ich sinf pedagogikasi sohasida matnni idrok etish jarayonini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Lingvopsixologik yondashuv bu jarayonning nazariy va amaliy asosini tashkil qiladi. Lingvopsixologiya til va psixika o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi, o'quvchilarning matnni tushunish va undan ma'no chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu yondashuv yordamida pedagoglar o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan

holda ta'lim jarayonini samarali tashkil eta oladilar. Masalan, diqqatni jamlash va qisqa muddatli xotirani mustahkamlash mashqlari matnni tushunish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy ta'lim psixologiyasi tadqiqotlariga ko'ra, matnni idrok etish o'quvchilarning lingvistik salohiyatini rivojlantirish bilan birga, ularning mavzuga oid bilimlarini mustahkamlashga, fikrni tizimli ifodalashga va tafakkur qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, matnni tushunish jarayoni bolalarda so'z boyligini oshirishga, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Lingvopsixologik yondashuv nafaqat til va mantiqiy tafakkur, balki o'quvchining hissiy va motivatsion jihatlarini ham hisobga oladi.

Boshlang'ich sinf pedagogikasi doirasida matnni idrok etish jarayonini o'rganishning ilmiy asoslari o'quvchilarning kognitiv va lingvistik salohiyatini bir vaqtning o'zida rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli pedagoglar matnni idrok etish jarayonini turli metod va vositalar orqali tashkil etishlari zarur. Masalan, multimediali materiallar, interaktiv mashqlar va dramatisatsiya usullari o'quvchilarda matn mazmunini tez va to'liq tushunish, uni tahlil qilish va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu tarzda, boshlang'ich sinf pedagogikasi sohasida matnni idrok etish jarayonining lingvopsixologik asoslarini o'rganish nafaqat o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini, balki ularning umumiy psixologik rivojlanishini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot matnni idrok etish jarayonining nazariy asoslarini aniqlash va amaliy metodlarni ishlab chiqish orqali boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga imkon yaratadi [1].

O'quvchilarda matnni idrok etish jarayonini o'rganishda lingvistik va psixologik yondashuvlar birlashtirilgan holda tadqiq qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning matnni tushunish qobiliyati nafaqat til bilimlariga, balki ularning kognitiv va psixologik rivojlanish darajasiga ham bog'liqdir. Lingvopsixologik yondashuv o'quvchilarning til, tafakkur, diqqat va xotira qobiliyatlarini birlashtirib, matnni idrok etish jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Mashhur psixolog L.S. Vygotskiy til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bolalarning matnni tushunish qobiliyatini belgilaydi, deb hisoblagan. Unga ko'ra, til nafaqat kommunikatsiya vositasi, balki tafakkur jarayonini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [2]. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga matnni tushuntirish va idrok etishni o'rgatishda tilning rolini hisobga olish zarur. Matnni o'qish jarayonida so'z boyligi, grammatik tushuncha va kontekstual bilimlar bolalarning mazmunni to'liq idrok etish qobiliyatiga ta'sir qiladi.

Shuningdek, J. Piaget bolalarda kognitiv rivojlanish bosqichlari matnni idrok etish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan [3]. Piagetning nazariyasi bo'yicha, bolalar turli yoshda tafakkur va mantiqiy fikrlash darajasi bilan ajralib turadi, shuning uchun pedagoglar matnni tushuntirishda o'quvchilarning kognitiv xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Masalan, yosh boshlang'ich sinf o'quvchilari oddiy matnlarni tushunishda vizual tasvirlarga va soddalashtirilgan iboralarga tayanadi, katta yoshdagi bolalar esa mantiqiy bog'lanishlarni va mavhum tushunchalarni tushunishga qodir.

O'zbekistonlik olimlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni idrok etishning lingvopsixologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda. Abdullaev Sh. o'quvchilarning o'qish, tushunish va so'z boyligi darajasi matnni idrok etish sifatiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan [4]. Shu tadqiqotlar natijalariga ko'ra, so'z boyligi yuqori bo'lgan bolalar matn mazmunini tezroq idrok etadi, o'z fikrini aniq ifodalaydi va mavzuni yaxshiroq tahlil qila oladi.

Bundan tashqari, lingvopsixologik tadqiqotlar bolalarning diqqat va xotira qobiliyatlarini rivojlantirish metodlarini ham muhim deb hisoblaydi. Matnni idrok etish jarayonida diqqatni jamlash va qisqa muddatli xotirani mustahkamlash mashqlari o'quvchilarga matn mazmunini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, multimediali materiallar, dramatisatsiya usullari va interaktiv o'quv mashqlari ham bolalarning matnni idrok etish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Shu tarzda, tadqiqotlar lingvopsixologik yondashuv matnni idrok etish jarayonini samarali tashkil etishda muhimligini ko'rsatadi. Lingvopsixologik asoslar pedagoglarga o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, matnni tushuntirish va idrok etishni optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu yondashuv bolalarda kognitiv, lingvistik va ijtimoiy rivojlanishni bir vaqtning o'zida ta'minlashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni idrok etish jarayoni ularning kognitiv va lingvistik salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab psixologik hodisadir. Matnni idrok etish nafaqat o'qish qobiliyatini rivojlantiradi, balki tafakkur, mantiqiy fikrlash, diqqat va xotira kabi psixologik jarayonlarni ham shakllantiradi. Shu sababli lingvopsixologik yondashuv boshlang'ich sinf pedagogikasi uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Matnni idrok etish jarayonida birinchi navbatda diqqat va xotira omillari muhim rol o'ynaydi. Diqqatning to'liq va barqaror bo'lishi o'quvchining matn mazmunini tushunish, tafakkur qilish va asosiy g'oyalarni ajratib olish qobiliyatini oshiradi. Qisqa muddatli xotira esa o'quvchiga matnning mazmunini qisqa vaqt ichida saqlash va tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilari matnni qismlarga ajratib idrok etganida, ular asosiy g'oyalarni yaxshiroq eslab qoladi va keyinchalik ularni mantiqan bog'lab ishlatadi. Shu sababli pedagoglar diqqat va xotirani rivojlantiruvchi interaktiv mashqlar va vizual vositalardan foydalanishlari tavsiya etiladi.

Lingvistik salohiyat ham matnni idrok etish jarayonida muhim omil hisoblanadi. So'z boyligi yuqori bo'lgan bolalar matnni tez va samarali tushunadi, o'z fikrini aniq ifodalay oladi va matn mazmunini tahlil qilishda kamroq qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bilan birga, grammatik qoidalar va sintaksisni tushunish matn mazmunini to'liq idrok etishga yordam beradi. Masalan, murakkab jummalarni o'qishda so'zlarning grammatik va semantik ahamiyatini bilish bolaga matn mazmunini aniq tushunishga imkon yaratadi.

Matnni idrok etish jarayoni o'quvchining kognitiv rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolalar turli yoshlarda tafakkur darajasi va mantiqiy fikrlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Shu sababli yosh boshlang'ich sinf o'quvchilari oddiy matnlarni tushunishda vizual tasvirlar va sodda iboralarga tayanadi, kattaroq sinf o'quvchilari esa murakkab tushunchalarni mantiqan bog'lab tushunishga qodir bo'ladi [3].

Pedagoglar matn mazmunini bolalarning kognitiv darajasiga moslab tanlash orqali idrok etish jarayonini samarali tashkil qilishi mumkin.

Tafakkur va mantiqiy bog'lash matni tushunishning muhim jihatlaridan biridir. O'quvchilar matn mazmunini analiz qilish va sabab-natija munosabatlarini tushunish orqali fikrlarini tizimli ravishda ifodalay oladi. Shu bilan birga, savol-javob mashqlari va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish mashqlari tafakkur qobiliyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, o'quvchilar matn asosida qisqa hikoya tuzish yoki voqealarni ketma-ketlikda bayon qilish orqali tafakkur qobiliyatini mustahkamlaydi.

Vizual va auditiv qobiliyatlar ham matni idrok etishda muhim rol o'ynaydi. Matni o'qishda vizual yordamchi materiallardan foydalanish (rasmlar, diagrammalar, grafiklar) bolalarga mazmunni tezroq tushunishga yordam beradi. Auditiv vositalar, masalan, matni tinglash yoki o'qish bilan bog'liq interaktiv mashqlar esa eslab qolish va tushunishni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, multimediya va interaktiv texnologiyalar o'quvchilarning e'tiborini jamlashga va matni idrok etish jarayonini qiziqarli qilishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf pedagogikasida lingvopsixologik yondashuv o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Har bir o'quvchining diqqat, xotira, tafakkur va so'z boyligi darajasi turlicha bo'lishi mumkin, shuning uchun pedagoglar matni tushuntirish va idrok etishni moslashtirishlari zarur. Shu bilan birga, guruh ichidagi o'zaro faoliyat va kollaborativ mashqlar bolalarning matni tushunish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni idrok etish jarayoni lingvistik, psixologik va pedagogik omillar bilan chambarchas bog'liq. Abdullaev Sh. o'quvchilarning o'qish va tushunish darajasi, so'z boyligi matni idrok etish sifatiga bevosita ta'sir qiladi deb ta'kidlaydi [4]. Shu sababli matni tushuntirish va o'qitish metodlarini ishlab chiqishda bu omillarni hisobga olish zarur.

Xulosa: Shu tarzda, boshlang'ich sinf pedagogikasi doirasida matni idrok etish jarayonini samarali tashkil etish uchun lingvopsixologik asoslarni chuqur o'rganish muhimdir. Lingvopsixologik yondashuv nafaqat til va tafakkur qobiliyatini rivojlantirish, balki o'quvchilarning umumiy kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagoglar turli interaktiv va multimediya metodlari, vizual va auditiv materiallar orqali matni idrok etishni yaxshilash imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, individual yondashuv o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1] Vygotskiy L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.

[2] Piaget J. The Psychology of Intelligence. London: Routledge, 1950.

[3] Abdullaev Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matni idrok etish psixologiyasi. Toshkent: Fan, 2019.[4] Karimova N. Lingvopsixologik yondashuv va pedagogik texnologiyalar. Toshkent: O'qituvchi, 2020

**3D-MODELLASHTIRISH VA 3D BOSMA ORQALI TEXNIK IJODKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING YANGI MODELI****Hakimova Sharofat Abdusattorovna**

*Ilmiy rahbar Termiz davlat pedagogika instituti Tabiiy va aniq fanlar fakulteti
Texnologiya va geografiya kafedrasida o'qituvchisi Tel: +998(93) 125-58-58 E-mail:
sharofathakimova66@gmail.com*

Bobonazarova Feruza Jumaniyoz qizi

*Termiz davlat pedagogika instituti Texnologiya va geografiya kafedrasida Texnologik
ta'lim yo'nalishi 1-kurs, 25-02 guruh talabasi Email: bobonazarovafaruza07@gmail.com
Tel:+998993768487*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 3D-modellashtirish va 3D bosma texnologiyalarining ta'lim jarayonida texnik ijodkorlikni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Yangi modelning tarkibiy qismlari, bosqichlari va uning o'quvchi-yoshlar texnik tafakkuriga ta'siri asoslab beriladi. Shuningdek, innovatsion kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *3D-modellashtirish, 3D bosma, texnik ijodkorlik, STEAM, raqamli texnologiyalar, innovatsion ta'lim.*

KIRISH

So'nggi yillarda dunyo miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, 3D-modellashtirish va 3D bosma texnologiyalarining keng joriy etilishi zamonaviy o'quv jarayonida texnik ijodkorlikni rivojlantirishning strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilar nafaqat fazoviy tafakkurni shakllantiradi, balki real obyektlarni yaratishga qodir bo'lgan konstruktorlik ko'nikmalarini ham egallaydi. Bunday yondashuv bugungi innovatsion iqtisodiyot talab qilayotgan kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida raqamli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga jadal tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-fevraldagi PQ-3586-son qarorida "ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning raqamli ko'nikmalarini shakllantirish va innovatsion loyihalarga jalb etish" muhim vazifa sifatida belgilangan [1]. Mazkur hujjat yoshlarning texnologik tafakkurini kengaytirish va zamonaviy loyihaviy ta'lim yondashuvini yo'lga qo'yish bo'yicha aniq vazifalar yuklaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son qarorida ta'lim tizimida innovatsion muhitni shakllantirish va texnik-ijodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilib, bunda raqamli texnologiyalar asosida yaratishga o'rgatish mexanizmlarini keng joriy etish zarurligi qayd etilgan [2].

3D-modellashtirish va 3D bosma texnologiyalari ta'limda qo'llanilishi aynan ushbu davlat dasturlarida belgilangan vazifalar bilan uyg'unlikda bo'lib, ular o'quvchilarda kreativ fikrlashni, muhandislik tafakkurini, texnik loyihalash ko'nikmalarini va amaliy sinov tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy darslarda ko'proq nazariy bilimlar ustuvor bo'lsa, 3D texnologiyalar asosidagi amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarni amaliy tajriba orttirishga, o'z g'oyalarini real shaklga keltirishga, konstruktiv fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltiradi.

Bugungi kunda STEAM ta'limining joriy etilishi ham 3D texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quvchilarni fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali kompleks fikrlashga o'rgatadi. 3D-modellashtirish ushbu integratsiyaning markazida turib, yoshlarni nafaqat tasavvur qilish, balki uni raqamli makonda modellashtirish va 3D bosma orqali real obyektga aylantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Tadqiqot dolzarbligi: Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 3D-modellashtirish va 3D bosma texnologiyalariga asoslangan texnik ijodkorlikni rivojlantirishning yangi modeli o'quvchilarning innovatsion tafakkurini shakllantirishda samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu model o'quvchilarning kreativ yondashuvini, texnik kompetensiyalarini va muhandislik faoliyatiga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o'quv jarayonining interfaolligini kuchaytiradi, o'quvchilarda loyiha asosida ishlash madaniyatini shakllantiradi hamda ta'lim sifatini global standartlarga moslashtirishga imkon yaratadi.

Har xil 3D bosib chiqarish texnologiyalari

1. Birlashtirilgan depozit modellashtirish (FDM): Arzon va quruq ishlab chiqarish termoplastik filamentlarini qatlamli qoziqni o'z ichiga olgan 3D bosib chiqarish texnologiyasi, ularning 3 ta bezaklari uchun osongina qo'llaniladi.

2. Stereolitografiya (SLA): Suyuq qatronlar taqdim etiladi, u keyinchalik UV lazer yordamida polimerlanadi. Yakuniy mahsulotlar mukammal aniqlik va murakkablik bilan ajralib turadi.

3. Selektiv lazerli sintirlash (SLS): Bunday jarayon kukunli materialni, odatda neylon yoki metallni kuchli va murakkab qismlarni hosil qilish uchun birlashtirishga olib keladigan lazerni nazarda tutadi.

4. Raqamli nurni qayta ishlash (DLP): Bu ko'proq yoki kamroq SLA ga o'xshaydi, bundan tashqari plyonkali qatronlar raqamli yorug'lik proyektor yordamida davolanadi, bu esa tezroq ishlab chiqarish vaqtiga olib keladi.

5. Bog'lovchi oqimi: Zarracha(lar)ni sirtga va kukunning tegishli pastki qismlariga siyoh bilan bog'lanishini o'z ichiga oladi, ko'pincha to'liq rangli va metall qismlar.

6. Materiallar oqimi: Materiallar tomchilarining ketma-ket qatlamlarini hosil qiladi, turli materiallar va ranglar bir nashrda ishlatilishi mumkin, bu aniq nashrga olib keladi.

Har bir texnologiya mijozlarning talablari va ishlab chiqarish jarayonining aniqligiga qarab metall va plastmassada 3D bosib chiqarish uchun o'zining afzalliklari va qo'llanilish sohaslariga ega.

An'anaviy ishlab chiqarishning afzalliklari

Shunisi e'tiborga loyiqki, ularning shunga o'xshash takliflaridan tashqari, 3D bosib chiqarish yanada o'rnatilgan ishlab chiqarish usullariga nisbatan mahsulotlarning samaradorligi va buyurtma asosida ishlab chiqarilishida o'sishga erishdi. Bu, birinchi navbatda, mahsulotni ishlab chiqarishning ma'lum bosqichlarini yorug'lik tezligida amalga oshirishga imkon beradi, bu esa kontseptsiya va mahsulotni realizatsiya qilish o'rtasidagi vaqtni qisqartiradi.


An'anaviy tarzda, subtractive usullari kesishni o'z ichiga oladi va moddalarni shakllarga ajratish. Bundan farqli o'laroq, 3D bosib chiqarish qo'shimcha jarayon bo'lib, ko'pincha chiqindilarni kamroq va xom ashyodan samaraliroq foydalanishga olib keladi. Bu ko'pincha kamroq moddiy xarajatlarga olib keladi va oddiy amaliyotda olinmaydigan murakkab shakllarga imkon beradi. Bundan tashqari, 3D bosib chiqarish individual mahsulotlarni moslashtirishni rag'batlantiradi va boshqa kompaniyalarga o'rtacha xarajatlar va o'z vaqtida mahsulotlarni xohlaganicha ishlab chiqarishga imkon beradi. Nihoyat, tovarlar kerak bo'lganda ishlab chiqarilganligi sababli, inventarni saqlash yoki saqlashga bo'lgan ehtiyoj cheklangan bo'lib, ta'minot zanjirlarining moslashuvchanligini oshiradi.

1-rasm Ish stoli va sanoat 3D printerlari

Ish stoli 3D printerlari, birinchi navbatda, funksiyasi va ishlashi jihatidan oddiy, o'lchamlari kichik va arzon; shuning uchun ular ixlosmandlar uchun, shuningdek, plastmassa yoki ko'proq ixtisoslashgan kichikroq loyihalar uchun javob beradi. metall ishlab chiqarish. Bu erda qo'llaniladigan texnologiyalar prototiplar va kichik qismlar uchun zarur bo'lgan tafsilotlar darajasiga mos keladigan eritilgan cho'kindi modellashtirish (FDM) va qatronlarni bosib chiqarishni o'z ichiga oladi. Boshqa tomondan, sanoat 3D printerlari ommaviy ishlab chiqarish, masalan, stereolitografiya yoki selektiv lazer sintirlash texnologiyalaridan foydalangan holda iqtisodiy jihatdan ilg'or ilovalar uchun qurilgan. Dizaynning murakkabligi talablariga qo'shimcha ravishda, bu mashinalar aviatsiya va tibbiyot kabi ba'zi ishlab chiqarish tarmoqlari tasvirlaydigan korroziya, bog'lanish va charchoq stresslariga javob beradigan aniqlik, material qobiliyati va mustahkamligini ta'minlaydi.

Qatronlar va plastik 3D bosib chiqarish

